



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
IQTISODIYOT VA MOLIIYA VAZIRLIGI HAY’AT
MAJLISINING BAYONI**

19-fevral 2026-yil.

1-son

Raislik qiluvchi: **J. A. Qo‘chqorov** – Iqtisodiyot va moliya vaziri

Qatnashuvchilar: Hay’at a’zolari (*ro‘yxat bo‘yicha*).

KUN TARTIBI:

**Iqtisodiyot va moliya vaziri o‘rinbosarlari faoliyatining
2025-yil uchun belgilangan samaradorlik
ko‘rsatkichlari (KPI) ijrosi to‘g‘risida**

(*Qo‘chqorov, Tangriyev, Norqulov, Xaydarov, Sadullayev, Mustafayev, Fazilkarimov, Abidxadjayev, Raximova, Fazilov, Xudayberganov,..., Qo‘chqorov*)

Yig‘ilishni Iqtisodiyot va moliya vaziri J. Qo‘chqorov ochib, kun tartibidagi asosiy masala O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 13-martdagi PF-49-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 31-iyuldagi 463-sonli va 2025-yil 29-apreldagi 278-sonli qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 10-fevraldagi 07-15-21-son xatida belgilangan topshiriqlar ijrosidan kelib chiqqan holda Iqtisodiyot va moliya vaziri o‘rinbosarlarining o‘zlari mas’ul bo‘lgan sohalar va tarmoqlar bo‘yicha 2025-yil uchun belgilangan samaradorlik ko‘rsatkichlariga (KPI) to‘laqonli erishilishi va natijadorligi yakunlari ko‘rib chiqilishini ma’lum qildi.

Bosh vazir o‘rinbosari – Iqtisodiyot va moliya vaziri J. Qo‘chqorov tomonidan **2025-yil yakunlari bo‘yicha** vazir o‘rinbosarlari faoliyat samaradorligi (KPI) natijadorlikka to‘liq erishilganligi alohida ta’kidlab o‘tildi.

Vazirlar Mahkamasining Kotibiyat mudiri I. Tangriyev soʻzga chiqib, Iqtisodiyot va moliya vaziri oʻrinbosarlarining **2025-yil 4-chorakda** belgilangan **62 ta** samaradorlik koʻrsatkichlari ijrosi toʻlaqonli bajarilganligi (**100 foiz**) hamda ushbu natijadorlik 2025-yilning 1–3-choraklarida erishilgan natijadorlikka nisbatan yuqori ekanligini aytib oʻtdi.

Xususan, vazir oʻrinbosarlarining:

2025-yil 1-chorakda belgilangan **58 ta** samaradorlik koʻrsatkichlari ijrosi natijadorligi – **98,4 foiz**;

2025-yil 2-chorakda belgilangan **60 ta** samaradorlik koʻrsatkichlari ijrosi natijadorligi – **99,8 foiz**;

2025-yil 3-chorakda belgilangan **61 ta** samaradorlik koʻrsatkichlari ijrosi natijadorligi – **99,9 foiz**;

2025-yil 4-chorakda belgilangan **62 ta** samaradorlik koʻrsatkichlari ijrosi natijadorligi – **100 foizga** yetganini maʼlum qildi.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining Kotibiyat mudiri I. Tangriyev tomonidan Iqtisodiyot va moliya vaziri oʻrinbosarlarining **2025-yil uchun belgilangan quyidagi eng samaradorlik koʻrsatkichlari ijrosi:**

yalpi ichki mahsulotning **6 foizdan** kam boʻlmagan darajada oʻsish surʼatini taʼminlash boʻyicha koʻrsatkich ijrosi **7,7 foizga**;

aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot (YIM) hajmini **44 mln soʻmga** yetkazish boʻyicha koʻrsatkich ijrosi **48,8 mln soʻmga**;

yillik inflyatsiya darajasining **8 foizdan** oshmasligini taʼminlash boʻyicha koʻrsatkich ijrosi **7,3 foizga**;

bozor xizmatlari hajmi oʻsishini **14,5 foizga** taʼminlash boʻyicha koʻrsatkich ijrosi **14,7 foizga**;

iqtisodiyotda nodavlat sektor ulushini **68 foizga** oshirishni taʼminlash boʻyicha koʻrsatkich ijrosi **68 foizga**;

Oʻzbekiston Respublikasining davlat va maqsadli jamgʻarmalari budjeti taqchilligining 2025-yil yillik YIM prognoziga nisbati **2 foizdan** oshmasligini taʼminlash boʻyicha koʻrsatkich ijrosi **1,2 foizga**;

sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining **6,1 foizga** oʻsishini taʼminlash boʻyicha koʻrsatkich ijrosi **6,8 foizga**;

2025-yilgi ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi doirasida Davlat budgetining markazlashtirilgan manbalari hisobidan qurilish-taʼmirlash boʻyicha tasdiqlangan manzilli roʻyxatlariga asosan **16 155 mlrd soʻm**

mablag'larni ajratish bo'yicha ko'rsatkich ijrosi yuzasidan **20 837 mlrd so'm** ajratilganligi;

nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalariga davlat budjetidan **3809,5 mlrd so'm** subsidiyalarni moliyalashtirish bo'yicha ko'rsatkich ijrosi yuzasidan **3957,6 mlrd so'm** ajratilganligi;

elektron davlat xaridlari ulushini **58 foizdan kam bo'lmagan darajada** oshirib borish (jami davlat xaridlariga nisbatan) bo'yicha ko'rsatkich ijrosi **58 foizga** bajarilgani ma'lumot uchun alohida ta'kidlab o'tildi.

Iqtisodiyot va moliya vaziri J. Qo'chqorov tomonidan barcha vazir o'rinbosarlari o'zlari mas'ul bo'lgan sohalar va tarmoqlar bo'yicha belgilanadigan rejalarning kelgusida o'z vaqtida to'laqonli va sifatli bajarilishi muhim ekanligi ta'kidlandi.

Vazirlik barcha rahbarlarning samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) ijrosini o'z vaqtida to'liq va sifatli bajarish va ijro intizomini mustahkamlash maqsadida yig'ilish

QAROR QILADI:

1. Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 10-fevraldagi 07-15-21-sonli topshirig'i ijro uchun qabul qilinsin.

2. Muvofiqlashtirish va axborot-tahlil departamenti (B. Xudayberganov) Iqtisodiyot va moliya vazirligining Iqtisodiyot va moliya vaziri o'rinbosarlari faoliyatining 2025-yil uchun belgilangan samaradorlik ko'rsatkichlariga (KPI) to'laqonli erishilishi va natijadorligi yakunlari muhokamasi yuzasidan o'tkazilgan yig'ilish bayoni tasdiqlangandan so'ng **2 kun muddatda** Vazirlar Mahkamasiga taqdim etilishini ta'minlasin.

3. Mazkur bayon topshiriqlarining o'z vaqtida va to'liq bajarilishini ta'minlash Iqtisodiyot va moliya vazirining birinchi o'rinbosari I. Norqulov zimmasiga yuklansin.

Hay'at raisi



J. Qo'chqorov